



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyun)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7551,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 86,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,0 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 23,6 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 3,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 16,1 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 32,9 % ga pasayish kuzatildi.



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

*Jamiga nisbatan ulushi*




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat

*Jamiga nisbatan ulushi*

2020 - yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7172,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,0 % ini tashkil etdi.





Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 66,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 1365,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 18,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 1041,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 13,8 %), quyi texnologiyali 4699,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 62,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish hajmi  
(mlrd. so'm)



Ishlab chiqarish tarkibi %




■ yuqori texnologiyali  
■ o'rta-yuqori texnologiyali

■ quyi texnologiyali  
■ o'rta-quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**




2020-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 116,4 ming tonna chaqiq tosh (2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 27,5 % ga o'sgan), 165,5 ming tonna po'latdan quvurlar (6,6 marta), 170,7 ming tonna asfalt (29,8 %), 8013,4 tonna yigirilgan ip (2 marta), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	91,3	116,4	25,1
<b>Po'latdan quvurlar ming t.</b>	<b>24,9</b>	<b>165,5</b>	<b>140,6</b>
Tamaki (segaret), mln.dona	5063,0	4428,0	-635
<b>Asfalt, ming t.</b>	<b>131,5</b>	<b>170,7</b>	<b>39,2</b>
Yigirilgan ip, t	3913,9	8013,4	4099,5

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
<b>Xo'jalik sovuni, t</b>	<b>2804,0</b>	<b>2419,0</b>	<b>-385,0</b>
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	34,9	12,7	-22,2
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>	<b>14,6</b>	<b>20,4</b>	<b>5,8</b>
O'simlik yog'i, t	18368,5	16226,4	-2142,1



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish**  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Tarkibida ikkita ta'minlovchi element— azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar

**2,99**  
ming tonna



Aroq

**116,9**  
ming l. 100% spirt



Xo'jalik sovuni

**2419,0**  
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi


**876,2**  
*ming l.*

Pivo (pivo ishlab  
chiqarish  
chiqindilardan  
tashqari)

**14391,0**  
*ming l.*

Yumshoq bug'doy va  
spelta uni

**88,3**  
*ming tonna.*

Birinchi navli undan  
tayyorlangan bug'doy  
noni (buxanka), og'irligi  
600 g.

**353,8**  
*tonna*

Tozalangan paxta yog'i  
va uning fraksiyalari  
(kimyoviy modifikatsiya  
qilinganlaridan tashqari)

**6789,2**  
*tonna*



Paxta tolasi

**20,4**  
*ming tonna*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta chigiti

**36,24**  
*ming tonna*



Paxta tiviti (lint)

**1336,50**  
*tonna*



Yigirilgan ip

**8013,4**  
*tonna*



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

**34,6**  
*млн кВтч*



Bug' va issiq suv  
(issiqlik energiyasi)

**39,2**  
*ming Gkal.*




Portlandsement

**46596,22**  
*tonna*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Po'latdan quvurlar

**165,5**  
ming tonna



Asfalt

**170,7**  
ming tonna



Chaqiq tosh

**116,4**  
ming tonna



Tamaki (sigaret)

**4428,0**  
mln dona

Yirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqa

**60,9**  
ming tonna

Mineral va kimyoviy  
o'g'itlar chiqarish


**12,7**  
ming tonna





### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

#### Jamiga nisbatan ulushi



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 281,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 23,6 % ga oshganligi kuzatildi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

#### Jamiga nisbatan ulushi

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.






### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,9 % ga pasayganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4425,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 13,0 % ga pasayganligi va jami sanoatdagi ulushi 58,6 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,4 % dan 61,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,2 % (2019-yil yanvar-iyun oylarida 4,0 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 40,0 % ni, shuningdek, Urgut tumani 12,5 % ni, Samarqand tumani 8,1 % ni, Jomboy tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (87,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Pastdarg'om (133,3 %), Oqdaryo (140,7), Ishtixon (129,8 %), Payariq va Tayloq (105,8 %), Narpay (105,4 %), Jomboy (98,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4425,6</b>	<b>100,0</b>	<b>87,0</b>
<b>Samarqand sh.</b>	1948,2	44,0	89,5
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>	84,3	1,9	77,4
<i>tumanlar:</i>			
<b>Samarqand</b>	356,4	8,1	61,6
<b>Ishtixon</b>	116,3	2,6	129,1
<b>Pastdarg'om</b>	207,2	4,7	133,3
<b>Payariq</b>	56,6	1,3	105,8
<b>Urgut</b>	555,3	12,5	73,7
<b>Tayloq</b>	273,1	6,2	105,8
<b>Oqdaryo</b>	100,4	2,3	140,7
<b>Jomboy</b>	309,6	7,0	98,7
<b>Narpay</b>	114,9	2,6	105,4
<b>Bulung'ur</b>	84,2	1,9	47,5
<b>Kattaqo'rg'on</b>	76,8	1,7	93,4
<b>Nurobod</b>	87,2	2,0	90,0
<b>Paxtachi</b>	43,4	1,0	89,1
<b>Qo'shrabot</b>	10,7	0,2	94,1



### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2808,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 37,2 % ni tashkil etdi.




### Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020-yil yanvar-iyun mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>7551,3</b>	<b>86,4</b>
Samarqand sh.	3422,6	91,8
Kattaqoʻrgʻon sh.	148,0	100,7
<i>tumanlar:</i>		
Samarqand	560,3	71,7
Ishtixon	185,0	134,3
Pastdargʻom	286,6	102,8
Payariq	121,0	104,8
Urgut	607,5	82,2
Tayloq	277,9	102,8
Oqdaryo	154,2	122,9
Jomboy	982,5	71,3

	2020-yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Narpay	272,5	118,7
Bulung'ur	107,5	65,5
Kattaqo'rg'on	166,2	104,0
Nurobod	94,7	117,7
Paxtachi	145,6	107,5
Qo'shrabot	19,1	93,4



Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 45,3 %), Jomboy (13,0 %), Urgut (8,0 %), Samarqand (7,4 %), Pastdarg'om (3,8 %) Tayloq (3,7 %), Narpay (3,6 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,3 %), Nurobod (1,3 %) hamda Bulung'ur (1,4%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**  
(2020-yil yanvar-iyun oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi %
<b>Samarqand viloyati</b>	3106,8	41,1
<b>Samarqand sh.</b>	980,0	28,6
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>	44,2	29,8
<i>tumanlar:</i>		
<b>Samarqand</b>	405,0	72,3
<b>Ishtixon</b>	44,0	23,8
<b>Pastdarg'om</b>	145,7	50,8
<b>Payariq</b>	120,6	99,6
<b>Urgut</b>	485,9	80,0
<b>Tayloq</b>	81,3	29,2
<b>Oqdaryo</b>	81,4	52,8
<b>Jomboy</b>	216,1	22,0
<b>Narpay</b>	30,8	11,3
<b>Bulung'ur</b>	80,9	75,3
<b>Kattaqo'rg'on</b>	153,8	92,5
<b>Nurobod</b>	83,1	87,8
<b>Paxtachi</b>	138,5	95,1
<b>Qo'shrabot</b>	14,6	76,0



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes subyektlari ulushi, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3304,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qo'shrahobot, Oqdaryo, Nurobod, hamda Bulung'ur (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtachi (97,3 %), Urgut (82,9 %), Samarqand (74,4 %), Pastdarg'om (73,5 %), Payariq (51,5%) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Kattaqo'rg'on shahri (28,4 %), Samarqand shahri (29,0 %), Ishtixon (24,2 %), Narpay (12,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6250 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1472 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 23,5 %) Samarqand shahriga, 902 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 565 tasi (9,0 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020-yil yanvar-iyun oyida viloyatda 784 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 104 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,3 %) Samarqand shahrida, 89 tasi (11,3 %) Urgut tumanida, 73 tasi (9,3 %) Pastdarg'om tumanida, 71 tasi (9,1 %) Samarqand tumanida tashkil etildi.





**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 39 ta loyiha bo'yicha 279,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 3,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-iyun oylarida 47 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 84,3 foizga pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining ko'payganligi kuzatildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	35	39
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	15	18
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	231,7	279,3
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	3,4	3,7
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	299	47

Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel: (66) 235-06-80